



UDK:811.523

Inomjon AZIMOV,
ToshDO'TAU dotsenti, f.f.d
E-mail: inomjon66@mail.ru

SamDU professori, f.f.d M.Abdiyev taqrizi asosida

IMLO QOIDALARINI TUZISH TAJRIBASIDAN

Annotatsiya

Avvalgi maqolamizda 1926-yilda tuzilgan "Maorif va o'qutg'uchi" jurnalining 7-8-sonlarida e'lon qilingan "Yangi ozbek alifbasida imla qoidalari" loyihasi xususida so'z yuritilgan edi. Ta'kidlab o'tilganidek, mazkur imlo qoidalarining kamchiliklari bor edi. "Buzuq, qoidasiz" (Fitrat) bo'lgan tilni ma'lum qoidalarga solish, bu yo'lda ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lish, boshqa tillar tajribalari bilan yaqindan tanishgan bo'lish lozim edi. Shu tariqa uni takomillashtirish bo'yicha jiddiy ishlar olib borildi. Yig'ilishlarda, matbuotda takliflar o'rta tashlandi, ishlab chiqilgan loyihalar muhokama qilindi. Nihoyat, 1929-yilda Samarqandda bo'lib o'tgan til-imlo qurultoyida ba'zi kamchiliklariga qaramay, yuqoridagiga nisbatan mukammal imlo qoidalarini tasdiqlanadi. Mazkur imlo qoidalari Qayum Ramazon tomonidan 1931-yilda "O'zbek adabiy tilining imlo qoidalari" nomi bilan nashr qilingan. Maqolada ushbu asar xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Jadid, "Chig'atoy gurungi", imlo, tovush, cho'zg'i, harf, singarmonizm, qalinlik, ingichkalik, ism, fe'l, me'yor.

РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ОПЫТЕ СОСТАВЛЕНИЯ ПРАВИЛ ПРАВОПИСАНИЯ

Аннотация

В предыдущей статье мы рассматривали проект Правил орфографии на новом узбекском алфавите, опубликованный в 1926 году в двоянных выпусках (№7–8) журнала «Маориф ва ўқитувчи» («Образование и учитель»). Как уже подчеркивалось ранее, данный проект не был лишён недостатков. Для систематизации языка, который Фитрат охарактеризовал как «испорченный и лишенный правил», требовалась определённая подготовленность и хорошее знание опыта других языков. Впоследствии были предприняты значительные усилия по усовершенствованию и доработке орфографической системы. Предложения выдвигались на общественных собраниях и в прессе, подготовленные проекты подвергались открытым обсуждениям и критике. В конечном итоге, на орфографическом съезде, состоявшемся в Самарканде в 1929 году, был утверждён более целостный и всесторонний свод правил правописания, несмотря на сохранявшиеся отдельные недостатки. Это стало заметным шагом вперёд по сравнению с предыдущей версией. Эти обновлённые орфографические правила были позже опубликованы Каюмом Рамазоном в 1931 году под названием «Правила орфографии узбекского литературного языка». Настоящая статья посвящена анализу и обсуждению именно этой работы.

Ключевые слова: Джадид, «Чигатайские беседы», орфография, звук, гласный, буква, сингармонизм, твердый гласный, мягкий гласный, существительное, глагол, норма.

REFLECTIONS ON THE EXPERIENCE OF COMPILING SPELLING RULES

Annotation

In a previous article, we examined the draft of the Spelling Rules in the New Uzbek Alphabet, published in issues 7–8 of the journal *Maorif va O'qutg'uchi* ("Education and Teacher") in 1926. As previously emphasized, the draft was not without its shortcomings. In order to systematize a language described by Fitrat as "corrupt and lacking rules," it was essential to possess a certain level of preparedness and to be well acquainted with the experiences of other languages. Subsequently, significant efforts were undertaken to refine and improve the orthographic system. Proposals were put forward in public meetings and in the press, and the drafts that had been prepared were subject to open discussion and critique. Ultimately, in 1929, the orthography congress held in Samarkand approved a more coherent and comprehensive set of spelling rules, despite some remaining deficiencies, marking a notable advancement over the previous version. These revised orthographic rules were later published by Qayum Ramazon in 1931 under the title *Spelling Rules of the Uzbek Literary Language*. The current article is dedicated to the analysis and discussion of this particular work.

Key words: Jadid, "Chigatai Talks", spelling, sound, stretch, letter, harmony of sounds, thickness, thinness, noun, verb, norm.

Kirish. Mustaqillikkacha faoliyati, ilmiy merosi ta'qiq ostiga olingan jadid ma'rifatparvarlarning hayoti, ijodini o'rganish, uni ommaga yetkazish ishlari hukumat miqyosida quvvatlanmoqda. Yaqin yillarda bu mavzuga bag'ishlangan ikki yirik xalqaro anjumaning o'tkazilishi, yurtboshimizning 2024-yil 19-iyuldagi "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish haqida"gi PQ-270-sonli qarori masalaning yanada chuqurroq va teranroq o'rganilishiga zamin yaratib berdi.

O'zbek tilshunosligida ham jadidlarning milliy tilshunoslik rivojiga qo'shgan hissasini atroflicha tadqiq etish, obyektiv baho berish, tilshunoslik tarixining kemtik joylarini to'ldirish muhim dolzarblik kasb etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, faqat sanoqligina jadidlar ilmiy merosi ilmiy tahlilga tortilgani holda, aksariyati hali ham arxiv hujjatlarida tadqiqotchilarini kutib turibdi. Tahlilga tortilayotgan mazkur risola ham hali tadqiq qilinmagan manba hisoblanadi.

Yuqorida aytilganidek, 1926-yilda e'lon qilingan imlo qoidalari juda sodda, jo'n tuzilgan bo'lib, unda, asosan,

singarmonizmga, so'z va qo'shimchalarning qattiqli-yumshoqligiga e'tibor qaratilgan edi. Uning hayotga tatbiqi kutilganidek bo'lmadi, amalda imlo anarxiyasi davom etdi. 1929-yilgi til-imlo konferensiyasida adabiy til, istiloh, imlodagi barcha kamchiliklarni qamrab olishga harakat qilindi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sanoqli tadqiqotlarda mavzuga doir fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, Fitratning tilshunoslik merosini tadqiq qilgan M.Qurbonova jadidlarning imlo bo'yicha olib borgan ishlari, "Chig'atoy gurungi" faoliyatiga to'xtalgan [1]. Sh.Bobomurodova, T.Tog'ayev tadqiqotlarida esa Elbek hamda Ashurali Zohiriylarning o'zbek adabiy tilining tayanch dialekti bo'yicha qarashlari, milliy alifbo, imlo masalalaridagi faoliyati, lug'atshunoslik sohasiga qo'shgan hissasi xususida so'z yuritilgan [2].

Y.Sayidovning "Jadid badiiy asarlari leksikasi" nomli doktorlik ishida jadid adabiyoti namoyandalari Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Muhammadsharif So'fizoda, Karimbek Kamiy, Abdulhamid Majidiy, Is'hoqxon Ibrat, Elbek, Botularning badiiy asarlari leksikasini tadqiq etish orqali o'sha davr til siyosatida yuzaga kelgan puristik harakat, umumturkiy tilni joriy qilish, eski "chig'atoy" tiliga qaytish singari g'oya va oqimlarning mazkur ijodkorlar asarlari tiliga, xususan, leksikasiga ta'siri yoritib berilgan [3].

S.Normamatov davr lug'atchiligini [4], F.Bobojonov Behbudiy va Abdulla Avloniy dramalarining til xususiyatlarini [5], K.Kadirov 20-yillar o'zbek tili morfologik tizimini [6], N.Yangibayeva jadidlarning "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalida til, alifbo, imloga bag'ishlangan maqolalarini tadqiq qilgan bo'lsa [7], I.Ermatovning tadqiqotida jadidlar tomonidan yaratilgan darsliklar tahlilga tortilgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Risolada bayon qilingan imlo qoidalar, ularning shakllanish jarayoni, asosiy prinsiplari va bugungi o'zbek adabiy tiliga ko'rsatgan ta'sirini aniqlash orqali hozirgi o'zbek tilidagi ayrim grafik-orfografik hodisalarni yaxshiroq tushunish, ularni ta'lim jarayonida tarixiy nuqtayi nazardan yoritish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Shuni alohida qayd etish kerakki, imlo masalasida jadidlar o'rtasida turlicha qarashlar mavjud edi. Sh.Bobomurodova o'sha davrda imlo masalasida quyidagi oqimlar mavjudligini qayd etgan: "1. Hech bir usulga va qoidaga rioya qilmasdan qadimiy imlo asosida yozmoq tarafdorlari bo'lmish qadimchilar; 2. Turkiy so'zlarni usuli savtiya (tovush usuli) asosida eshritilgan, arabiy so'zlarni esa o'z imlosi bilan yozmoq tarafdorlari; 3. Turkiy va arabiy so'zlarning hammasini tovush usuli bilan yozmoq tarafdorlari; 4. Turkiy tilimizda yot bo'lgan harflarni butunlay chiqarib, arab so'zlarini ham o'z tovushlarimiz bilan yozmoq tarafdorlari; 5. Arab harflarini butunlay tashlab, uning o'rniga lotin yozuvini qabul etmoq tarafdorlari" [2].

Imlo qoidalarini tuzishda qaysi jihatni (fonetik – savtiy, morfologik – sarfiy) asos qilib olish masalasida ham jadidlar o'rtasida jiddiy munozaralar bo'ladi. Masalan, Shokirjon Rahimiy milliy imlo uchun asos fonetika, ya'ni eshritilgan yozish asos bo'ladi degan fikrni ilgari suradi, lekin bu prinsip har doim ham to'g'ri emasligi, chunki bir o'rinda bir xil, boshqa o'rinda boshqacha yoziladigan so'zlar mavjudligini aytadi. Agar yolg'iz fonetikaga asoslanilsa, yuqoridagi holat bo'yicha anarxiya yuzaga kelishini, shu sababli imloda eshritilgan yozish bilan birga, sarfiy (morfologik) asosga rioya qilish lozim deydi. Shuning uchun ham mazkur qoidalarini tuzishda asosan ikki usul – savtiy (fonetik), sarfiy (etimologik – morfologik) amal qilinishi, tilimizda bir qancha shevalar (lahjalar – I.A) bo'lganligi sababli ta'lim-tarbiya ishlari yengillik bo'lishi uchun har ikki usuldan foydalanishga qaror qilingani aytiladi [9].

Singarmonizm masalasi. Imlo qoidalarini ishlab chiqishda eng katta muammolardan biri bu singarmonizm

masalasi edi. Barcha turkiy tillar uchun xos bo'lgan bu qonuniyatga jadidlar o'rtasida turlicha qarashlar bor edi. Ibrohim Tohiriy singarmonizmga shunday ta'rif beradi: "Singarmo'nizm to'g'risida tilimizni bizdan ko'brak, fanniyrak bilgan Avrupe' alimlari fikrlarini tinglangiz: To'msen: singarmo'nizmi: garmoniya glasnix deydi. Melio'ranskiy esa: "garmoniya zvukov v progressivnom poryadke" deb ta'bir qiladilar. Qanday bo'lsa ham tavushlarning bir-biriga ta'siri yarashub, uyg'unlashib ketishi ma'nasida anglaydilar. Buning sababi tavushlarning bir-biriga ta'sir etishi – bu esa tavush yasaydurg'an a'zalarimizning yalqavlig'i, dangasaligi natijasi" [10].

Qayum Ramazon bu qonuniyatni shunday tushuntiradi: "Bizdagi singarmo'nizm ayrim tavushlar yoki ayrim harflar ta'siri bilan bo'lmay, butun so'z turishicha aling'andag'i tabiatdir. Tavushlar tizmasi so'z yasas ekan, boshlab aytishig'a qalg'an tavushlar va qo'shimchalar ergashib ya ag'iz aldidanraq aytiladirkim, ingichka so'z, ingichka tavush deymiz yoki ag'iz arqasidanraq aytiladirkim, yo'g'an so'z, yo'g'an tavush deymiz [10].

Otajon Hoshimning fikricha, singarmonizm butun turk tili lahjalariga xosdir. U turk tili asosidir. Singarmonizm turk tilining temir qonunidir. Bunday temir qonun boshqa tillarda yo'q. Singarmonizm qonuni shundan iboratki, turkcha har bir so'z yo qalin, yo ingichka bo'ladi. Masalan, o't-o't'ga, it-itga. Mana shu qonun o'zbek lahjasida bo'lgani kabi boshqa turk lahjalarida ham bor. (Ozarbayjon, turkman, qozoq, qiryoiz, tatar va boshqa lahjalarida) [11].

Birinch Butunittifoq turkologiya qurultoyi hamda turk alifbosi Butunittifoq markaziy qo'mitasining plenumlarida singarmonizm masalasi jiddiy muhokama qilinadi. Munozaralarda I.Alparov, N.Hakimov va B.Cho'ponzodalar ham ishtirok etib, o'z fikrlarini turkiy tilda bildirishgani, lekin chop etilgan anjuman materiallarida ularning fikrlari keltirilmagani aytib o'tiladi [12]. Munozarada ishtirok etgan tatar tilshunosi O.Ibrohimov singarmonizmga qarshi chiqqan B.Cho'ponzodaning fikrlariga munosabat bildirib, turkiy tillardagi singarmonizm va agglyutinatsiya haqidagi fikrlari noto'g'ri ekanligi, singarmonizm turkiy tillarga xos xususiyat bo'lib, turkologiyaga oid barcha akademik nashrlarda alohida nazariya sifatida qayd etilganini aytadi [12]. Mana shunday munozaralar, tortishuvlardan so'ng singarmonizm o'zbek tilida ham asosiy qonuniyat sifatida e'tirof etiladi hamda yanada mukammalroq imlo qoidasi mazkur qonuniyat asosida tuziladi. 1929-yil may oyida Samarqand shahrida bo'lib o'tgan til-imlo konferensiyasida imlo masalasi kun tartibiga alohida masala sifatida kiritilib, 29 banddan iborat imlo qoidalar loyihasi muhokama qilinadi va tasdiqlanadi [18]. M.Qurbonova mazkur imlo qoidalariga to'xtalib, ushbu qoidalar o'zbek tilining milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilganini alohida ta'kidlab o'tadi [1].

Konferensiyadan so'ng Til, Termin Davlat Qo'mitasi mazkur loyihaga zarur sharhlar yozib, alohida qo'llanma yozishni Qayum Ramazonga topshiradi. Shu tariqa uning "O'zbek adabiy tilining imlo qoidalar" asari yuzaga keladi. Bu haqda risolaning avvalida Qo'mitaning quyidagi fikrlari keltirib o'tiladi: "Shu vaqtoqa qadar ʻmlla anarxiyasidan qutula almadʻq. Bir neca mʻrtʻabʻ til-ʻmlla kʻnferensijʻlʻrʻ saqʻrʻldʻ. Ular ilimij asosda til-ʻmlla mʻsʻlʻlʻrʻni hal qʻla almadʻ. Shu sʻbʻbli imlamʻzda anlab bolmasʻq kʻn anarxiya tuʻqlʻldʻ. Hʻr kim ʻz istʻgʻnʻcʻ yazdʻ. ʻlbʻttʻ, bu kʻʻfijʻt bilʻn qʻlʻv hʻm mymkʻn emʻs edi. Mʻnʻ shu hallarnʻ nʻzʻrgʻ alʻb, ʻzbekistan Yanʻ ʻlʻfʻbʻ Mʻrkʻzʻii Kʻmitʻsi yana til-ʻmlla kʻnferensijʻsi saqʻrʻldʻ. Kʻnferensijʻdʻ ʻmlla, termin (ʻstʻslah), adabiy til mʻsʻlʻlʻrʻ qaraldʻ. Bir qancha ʻzgʻrʻshʻlʻr yasaldʻ. Bu kʻnferensijʻ ʻtgʻn kʻnferensijʻlʻrgʻ qaraʻqanda sʻmʻrʻli boldʻ vʻ qoʻyʻlʻqan mʻsʻlʻlʻrʻni ilmiy rʻvʻshʻdʻ hʻl qʻldʻ. Endi qʻlʻnʻqan isʻlʻrni turmʻshʻga aʻʻrʻvʻrʻqʻna qaldʻ.

Imlamiz masalasi bizda hozir rasmiy syrotda hal qylndy desak mymkyn. O'zbekistan Maarif Xalq Komissarligi til-ymla konferensiyasining qararlaryn butunlay tasdiqlaydy (O'zbekistan Maarif Xalq Komissarligining 1929-yil 10-avgustda bolgan 73-nomirli kollegiya majlisi), endi chymhyriyat myqyasda bolgan kyndalik matbuat, nashriyat ishlrimiz, maktab, ilmiy va umumiy myassasalrimiz shu qollanma bojunca is jyrytylari kerak. Til-ymla konferensiyasining qararlaryn komintoriya shaklida islab chiquv usyn orta qayum Ramazonqa tashyrlan edi. Komito o'zining ilmiy xadimlary bilan bolgan ken majlisda bir qanca kyn tekshirib chqyb bir qanca tyztishlar bilan tasdiqlady. Komito bu asarni qollanma olaraq taqdim etadi" [10].

Unlilar sonini belgilashda ham jadidlar o'rtasida turlicha qarashlar bor edi. Bunday fikrlarning tug'ilishiga o'zbek tilida turkiy tillardagi har uch lahja (qarluq, qipchoq, o'g'iz)ning mavjudligi bo'lib, ularda singarmonizmga qat'iy amal qiluvchi, singarmonizm buzilgan shevalar ham mavjud edi. Bu haqda A. Alaviy shunday yozadi: "Bunda eng avval hal qilinmag'i kerak bo'lg'an narsa – sayitalar (unlilar)ning adadini tayyin qilish, boshqacha aytganda, qaysi shevani asos tutush masalasidir, chunki bizning tilimizda bir qancha shevalar bardir. Va bular savtiy va sarfiy (funitiy va morfuluiy) jihatlarda bir-birlaridan anchagina ayriladurlar. Lekin bu shevalarni umumiyatla ikkiga bo'lmak mumkindir: sing'armo'nizimli va sing'armo'nizmsiz shevalar" [13]. O'zbek tilida unlilar miqdorini belgilashda ayni shu tasnifga asoslanildi. Singarmonizmga qarshi bo'lganlar 6 unlini yoqlagan bo'lsa, singarmonizm tarafdorlari 9 unlini yoqlab chiqdilar.

"uv-yv", "iy-by" diftonglari jadidlar o'rtasida jiddiy munozaraga sabab bo'ladi. Ular alohida unli sifatida e'tirof qilinib, alifbo tarkibiga ham kiritiladi [14]. Tabiiy savol tug'iladi: jadidlar "ij-ij", "uv-yv" harfiy birikmalarini qaysi manbadan olganlar? Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, jadidlar alifbo, imlo islohi masalasida tatar tilshunoslari bilan yaqin aloqada bo'lganlar. Fitrat, Elbek, Qayum Ramazonlar darslik, qo'llanmalar yozishda Olimjon Ibrohimov, Jamoliddin Validiy, Fotih Sayfilarning tatar tili sarf va nahv asarlaridan namuna sifatida foydalanganlar, nazariy masalalar, ilmiy terminlarni ishlatish borasida ham ularga suyananlar. Fotih Sayfi, A. Sa'diy, Sh. Ahmadiy kabi tatar tilshunoslari o'z tajribalarini o'zbek tilshunoslari bilan o'rtoqlashganlar. O'sha davrlarda tatar tilshunoslari orasida ham bir necha oqimlar bo'lib, tatar tilida sakkizta, oltita, o'nta unli mavjud degan fikrni ilgari surganlar. Shu guruhlar ichida "o'unchilar" degan guruh bo'lib, ular sakkizta unli tarkibiga "ij- ij", "uv-yv" diftonglarini ham qo'shib, 10 ta unlini ilgari surishadi. Ayni shu "o'unchilar" g'oyalardan ilhomlanib, o'zbek tilida ham mazkur unlilarni alifboga kiritishgan [2]. Mazkur konferensiyada ba'zilar xuddi avvalgi loyihadagi kabi ularni alohida unli sifatida tavsiya qilsalar ham, ko'pchilik ovoz bilan ular murakkab tovushlar (unli+undosh) degan qarorga kelinadi: "Ba'zi ortaqqlar bularny bosit ekonini soylab, ayrim harf alishn taklif qilsalar ham, qanfgansha qajat ilmiy olaraq, bu harflarny myrakkab ekonini sbat qldy ham bularny "ij", "ij", "uv", "yv" ravysda yazsha qarar berdi" [15].

Risolada "Qoshaq unlilar" nomi ostida ayni shu diftonglar bo'yicha alohida qoida kiritilgan. Birinchi qoida "ij-ij" bo'yicha: "Tilimizda "i-i" unlilardan son ketma-ket kelgan "j" tavush unlilarda jedirilib, cozuq tavush bolib aytylady: Qbjma, qbjnaq, sbjla, kijma, bij (bek), chij kabi" [10]. Keyingi qoida esa "uv-yv" imlosiga bag'ishlangan: "y-u" unlilardan son kelgan "v" ham o'sal unlilarga jedirilib, cozylab aytylady: Suv, qyv, kyv, kyvrak kabi [10]. Bizningcha, "Qoshaq unlilar" deb emas, "Qoshaq tavushlar" yoki "Diftonglar" deb atalgani ma'qul, chunki unlilardan keyin kelayotgan "j" undosh tovush hisoblanadi. Tilshunos olim

M. Mirtojiev aytganidek, O'zbek tilidagi diftonglarning ham tarkibidagi ikkinchi unli yarim unlidan iborat. Biroq u undoshga uringanroq unli emas, balki unli tomonidan assimilyatsiya etilgan jaranglidan kelib chiqqan yarim unlidir. Lekin hamma jaranglilar ham so'z tarkibida unlidan keyin qo'llanib, oldidagi unli tomonidan assimilyatsiya qilinavermaydi. Bunday jaranglilar sanoqli miqdorga ega. Ulardan biri lab sirg'aluvchisi v bo'lsa, ikkinchisi til o'rta sirg'aluvchisi y undoshidir [16].

Ma'lumki, arab yozuvida, qo'lyozmalarda o'zbekcha so'zlar o'zaging oxirida "p" tovushi bilan tugasa-da, asosan "ko'b", "to'b" kabi "b" bilan yozilgan. Yangi qoidada bu jihat ham e'tiborga olingan: O'zbekce ozakni axyda "b" tavush ajtilmagani kabi yazylmajdyr ham: kop, chop, tap, qar kabi. Amma qosumcalarda boqunmy axy turqunly halda "p" ajtalsa ham, "b" yazyladyr: barib, oqib, kelib, baribman, kelibsan, oquban, keliban kabi [10]. Bundan tashqari, arab yozuvida tashdidli harflar, ko'pincha tashdid belgisi qo'yilmasdan yozigani uchu talaffuzda ham bir harf tarzida aytilgan. Bu holat ham qoida sifatida qayd etilgan: Tasdiqlangan tavushlar ikki harf bilan yazyladyr: ikki, yetti, sakkiz, toqquz, ottuz, katta, latta, arra, sassiq, issiq kabi [10].

Konferensiyada ba'zi mutaxassislar "dutarim dijilladi", "eshagim dijilladi" degan jummalarda "ك" ("j") uchun alohida harf olingani kabi "ك" tovushi uchun ham alohida harf olish taklifini beradi. Qayum Ramazon ayni shu holatni qoidalashtirishga harakat qilgan: Yani, deniz, keldiniz kabi so'zlar "n (ng)" bilan yazyladyr; qonqoz, danqilla kabi so'zlar "q (j)" bilan yazyladyr [10].

Risolaning "Bo'g'in tuzilishi" bo'limi ham alohida ahamiyatga molik. Bu bo'limda o'zbek tili bo'g'in tuzilishiga xos qoidalar beriladi. O'zbek tilida, boshqa turkiy tillardagi kabi har bo'g'inda albatta unli bo'lishi shartligi qoidalashtirilgan. Chetdan kirib kelgan so'zlar o'zbek tili qoidalariga moslashtirilishi qayd etiladi: "Tilimizda so'zlarning boqun tuzilishi shunday bolady: bir boqunda bir unli tavush bolish shart, yaloq bir ynsiz tavushdan boqun tyzilmajdyr, shunin kabi bir neca ynsizdan ham boqun tyzilmajdyr va boqun bashda ikki ynsiz ham qatar kelmajdyr. Amma boqun axyda ikki ynsizni qatar keliishi bardir. Cet tillarda boqun bashda ikki ynsiz qatar kela alish bar bolsa ham, byndaj so'zlar ozbek yazuvda oz tilimizni boqun tyziliyi qabydasga uydirib jazilady, y'ni u boqun ikkiga ajrylady: A. Birinci boqundaq ynlil tavushny ahanja uydyrylyb, "i-i" jake "u-y" arttyrylady: istakan, ustul, ustol, ishak, istanso kabi. B. Birinci ynsizdan son ynlil ahanja uydyrylyb, "i-i" jake "u-y" arttyrylady: givardiy, tiraktor, pisixologiya, Firansiya, tirest, furont, fulot, frank kabi [10].

Imlo qoidalariga singarmonizm (unlilar ohani, lab ohani), yo'g'on so'z, ingichka so'z, ularning yozilishi kabi qoidalar kiritilgan. Unlilar ohaniga shunday ta'rif berilgan: "So'zni birinchi boqunida kelyvchi ynlil tavushlar sonq boqunlarda oz chinslaridan bolgan ynlilarni istajdir. Shuna ynlilar ahan (ujoyunly) deymiz. Ynlilar ahan tybandagica bolady: ozak so'zlarny birinci boqunida yst unlilari (a, o), astynlar (i-i, e) bolsa, sonqi boqunlarda otu (u, y) lar kelmajdyr, bundan bashqalari kela beradi: xatyn, pater, qaryd, tirik, kelim kabi" [10]. Lab ohani (uyg'unligi) ga ham alohida ta'rif beriladi: "Birinchi boqunda bolgan lab ynlilari sonqi boqundaq ynlilarni oz chinslariga tartadylar, shu tabyatoqa lab ahan deymiz. Edbii tilimizni ymlasyda lab ahan tybandagica qabul qylnoqandy: birinci boqunda bolgan lab ynlilari (o, o, u, y) sonqi boqunda qysqa astlar (i-i) ni-gina keltirmajdyr: otun, tutuq, komyr, syryr kabi" [10].

Lab ohani masalasi ham jadidlar o'rtasida jiddiy tortishuvlarga sabab bo'ladi. lab ohani masalasi qirg'iz, qozoqlardagi kabi yuz foiz amal qilmasa-da, o'zbek tilida so'zning ikkinchi bo'g'iniga amal qilishi qoidalashtiriladi [10].

Qoidalarda qo'shimchalarga katta o'rin berilgan. Qo'shimchalar 3 ta guruhga ajratilgan: 1. So'z yasovchilar. 2. So'z turlovchilar. 3. Bu qo'shimchalarning ustiga yuklanib keluvchilar. O'zbek tilidagi mavjud qo'shimchalar, ularning fonetik variantlari, so'zga qo'shilib to'g'ri yozilish qoidalari misollar bilan tushuntirilgan. Qoidalar so'ngida chetdan kirib kelgan so'zlar, qo'shimchalar, ularning o'zbek tilida yozilish qoidalari berilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, chetdan kirib kelgan so'zlar o'zbek tili milliy qoidalariga moslashtirilgan bo'lsa-da, lekin ruscha so'zlarning yozilishida qoidalardan chekinish, ularni iloji boricha aslida yozishga intilish holatlari kuzatiladi, buni o'sha davr mafkurasi nuqtayi nazaridan tushuntirish mumkin.

Mazkur imlo qoidalarining yana bir e'tirof etishga loyiq jihati o'zbek tili alifbosiga birinchi marta bosh harflar kiritildi, lekin bosh harflar imlosi hali qoidashtirilmagan edi. Amirof ismlarda bosh harflar masalasiga to'xtalib, bir necha so'zlardan iborat yolg'iz ismlar bu kungacha turlicha yozilib kelgani, ba'zi birovlar bunday ismlarning faqat birinchi so'zlarinigina bosh harf bilan yozishini, boshqa birovlar necha so'zdan iborat yolg'iz ismlarni yozganda ularning har bir so'zining birinchi harfini katta qilib yozish kerak, chunki bunday yozganda san'at jihatidan chiroyli bo'lib ko'rinadi deydi. Masalan, "O'zbekiston Xalq Komeisarlari Shorasi", "SSSR Markazi Bxayua Qomtas" kabi [17]. Turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan singarmonizm qonuni o'zbek tilida ham asosiy qonun sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, shevalar xilma-xilligi mavjud bo'lgan tilimizda uning amal qilishi, so'zlarda yo'g'on, ingichka unlilarni qo'llash bo'yicha bir qator muammolar mavjud edi. Shuning uchun 29-band bilan bu muammoni hal qilish uchun zudlikda imlo lug'atlari tuzish lozimligi mutasaddilarga alohida vazifa sifatida beriladi.

Xulosa va takliflar. 1929-yilgi konferensiyani jadid millatparvarlarning milliy tilshunoslik bo'yicha amalga oshirgan so'nggi faoliyati deb aytilish mumkin. Konferensiya o'zbek adabiy tili, uning imlo qoidalari, atamalar bo'yicha tarixiy, o'zbek tilining o'z qonuniyatlarini hisobga olgan qarorlar bo'lishiga qaramasdan, unga siyosiy tus berilib, bu qarorlar markscha-lenincha g'oyalarga to'g'ri kelmasligi, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyat qurish jarayonida tilga yangi-yangi so'zlar kirib kelishi natijasida til qoidalarida ham o'zgarishlar bo'lishi, adabiy til tuzishda shahar shevalariga asoslanish zarurligi, singamonizmning tobora yo'qolib borayotgani, unga bog'liq ravishda unlilar miqdorini kamaytirish, adabiy tilni kommunistik g'oyalarga mos ravishda qayta tuzish bo'yicha tanqidiy maqolalar, bahs-munozaralar avj oldi. Ularga eskilikni qo'msash, feodal tuzumiga qaytishni targ'ib qilish, uni ulug'lash kabi ayblovlar qo'yiladi. Otajon Hoshimning fikricha, feodalizm davrida yashagan, o'z asarlarini chig'atoy adabiy tilining (Navoiy, Bobir, Lutfiy va hokazolari) feodal mohiyatidan olgan imlo biz uchun yaroqsizdir. Shuningdek, Oktabrgacha hukm surgan, ya'ni jadidizm imlosi ham bizga ma'qul emasdir. Chunki u jadid adabiy tilining yarim feodal, burjua mohiyatiga asoslanganidir. Chunki u o'z prinsiplarini, imloda goh turk, goh tatar burjua islohcilari imlosiga taqlid qiluvchi jadidlarning liberal burjua, panturkist, panislomist ustanofkalariga asoslanar edi. Nihoyat "Chig'atoy gurguni"ning imlo prinsiplari ham bizga ma'qul emasdir. Chunki u o'zbek tili yuksalishini burjua yo'liga solishga intilgan [18].

Shu tariqa milliy tilning ichki imkoniyatlariga asoslanib tuzilgan imlo qoidalari amaliyotga to'liq tatbiq etilmayoq bekor qilindi, endi sovet mafkurasi talablari asosida milliylikdan uzoqlashgan o'zbek adabiy tili qoidalari ishlash harakatlari boshlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Курбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – В.66-67.
2. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожига Элбекнинг роли: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – В.202; 132.
3. Сайидов Ё. Жадид бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2018.
4. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2019.
5. Бобононов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Бехбудий ва Авлоний драмалари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2005.
6. Кадилов К. Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиши тарихидан (20-йиллар ўзбек тилшунослиги материаллари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.
7. Эрматов И. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019.
8. Azimov I. XX asr boshlarida o'zbek tilshunosligining rivojlanish yo'nalishlari: Filol. fan. doktori (DSc) diss... – Toshkent, 2024. – B.162; B.209.
9. Tahiri I. Til, atama va imla bahslari. Til, alifbe va yozuv masalalari. – Tashkent // Qizil Ozbekistan, 1929, 82-san.
10. Ramazan Q. O'zbek tilining imla qaydalar. – Tashkent, 1931. – B.3-12.
11. Atajan. Baku plenumi natijalari. – Tashkent // Maarif va oqitquchi, 1927, 7-8-san. – B. 54-60.
12. Xudoyberdiyev J. O'zbek tilidan singarmonizmning chiqarilishi. – Toshkent, 2024. – B.29.
13. Azimov I. Mengliyev B. (2023), Jadidlar unlilar va singarmonizm haqida. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023, 3(7). – B.141.
14. Jamolxonov H., Umarov A. O'zbek yozuvining XX asr tarixi II-kitob. – Toshkent, 2019. – B.49.
15. Alaviy A. O'zbek yozuv alifbasini tuzishda asoslar. – Samarqand-Tashkent, 1927. – B.24.
16. Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent, 2013. – B.80-85.
17. Adabiy til va imla to'g'risida maqala, qararlar, II to'plam, 2-nci seriya (toplavchi Q.Ramazan). – Tashkent, 1934. – B.10-11.
18. Atajan. O'zbek janr adabiy tili va uning imlas haqida. – Tashkent, 1934. – B.22.